

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti professor-o'qituvchilari va  
talabalarining Ozarbayjon Respublikasida tashkil etilgan "Yozgi maktab"  
dasturi doirasida stajirovka o'taganligi bo'yicha  
HISOBOT**

24-27 iyul kunlari Toshkent kimyo-texnologiya instituti Korxonalar va ta'limga muassasalari bilan ishlash bo'yicha prorektori Shernayev Anvar Normamatovich boshchiligidagi 5 nafar professor-o'qituvchilar va 10 nafar talabalar Ozarbayjon Respublikasining Baku, Quba va Lankaran shaharlari dagi zamona viy horijiy ishlab chiqarish korxonalari va ta'limga muassasalari bilan tanishish maqsadida tashkil etilgan yozgi amaliyot va stajirovka dasturida ishtirok etishdi.

Mazkur "Yozgi maktab" stajirovka dasturi O'zbekiston -Ozarbayjon-Turkiya tadbirkorlar assotsiatsiyasi hamda Ipoteka bank hamkorligida tashkil etildi.

Dastur doirasida Baku shahridagi tarixiy joylarga jumladan Shahidlar xiyoboni, Adabiyot muzeyi, Minatyur kitoblar muzeyi, Qiz qal'asiga sayohat tashkil etildi.

Bundan tashqari Buyuk Kavkaz tog'larining shimoliy-shraqida joylashgan Quba tumanidagi Qudyaldaryosi ko'prigi (Ozarbayjonning pochta markasida aks etgan), Qirmizi kasaba shaharchasida joylashgan Quba soyqirim memorial kompleksi hamda Quba o'rmon va ko'llariga tashrif buyurildi.

Ozarbayjon Respublikasida "Yozgi maktab" stajirovka dasturi doirasida 5 nafar professor-o'qituvchi va 10 nafar talaba-yoshlar O'zbekiston Respublikasining Ozarbayjon Respublikasidagi elchixonasiga tashrif buyurishdi.





Tashrif davomida Ozarbayjon Respublikasida nufuzli telekanali hisoblangan **Xazar TV** telekanalida "Xabarlar" teledasturida Korxonalar va ta'lif muassasalari bilan ishlash bo'yicha prorektor A.N. Shernayev, Qo'shma ta'lif dasturlari magistranti R.I. Anorbayev, O'zbekiston-Ozarbayjon-Turkiya tadbirkorlar assotsiatsiyasi raisi Ruslan Imanzade "**O'zbekiston-Ozarbayjon Oliy ta'lif muassasalari hamkorligininig yangi bosqichi**" mavzusidagi jonli efirda ishtirok etishdi.



Dastur doirasida Haydar Aliyev jamg'armasi tashabbusi bilan Qal'a davlat tarix-etnografiya qo'riqxonasi hududida tashkil etilgan "Chiqindidan san'atga"

muzeyiga sayohat tashkil etildi. Muzey ekologik muammolarga jamoatchilik e'tiborini jalb qilish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, bunda ushbu maqsadga erishish uchun san'atning nozik va jozibali o'zgartirish kuchi bilan yaratilgan san'at namunalari har bir narsaning bir qarashda sezilmaydigan sirli go'zalligi ochib berilgan. Muzeyga tashrif davomida professor -o'qituvchi va talabalar mahorat bilan yaratilgan san'at asarlaridan bahramand bo'lishdi.

Ozarbayjon Respublikasida "Yozgi mакtab" dasturi doirasida professor-o'qituvchi va talabalar 2011 yil 29 noyabrda tashkil etilgan neft sanoatida yuqori malakali kadrlar tayyorlaydigan **Baku oliy neft maktabida** bo'lishdi. Ozarbayjon davlat neft kompaniyasi qoshida tashkil etilgan maktab universitet maqomiga ega bo'lib, Ozarbayjon oliy o'quv yurtlari orasida ISOning uchta yo'nalishi bo'yicha sertifikat olgan yagona maktabdir.

Tashrif davomida Baku oliy neft mакtabi, mavjud fakultetlar, ta'lim yo'nalishlari, talabalar hayoti, xalqaro aloqalar haqida bat afsil ma'lumot oldilar hamda o'quv va ilmiy laboratoriyalarga ekskursiya qildilar.

Yuqorida keltirilgan o'r ganishlardan tashqari dastur doirasida **Baku oliy neft maktabi** kutubxonasi bilan ham tanishildi va u yerdagi mavjud o'quv, ilmiy va boshqa turdag'i adabiyotlarni xili, tarkibi va xizmat ko'rsatish uslublari o'r ganib chiqildi.



Bundan tashqari professor -o'qituvchi va talabalar **Ozarbayjon Davlat neft va sanoat universitetiga** tashrif buyurishib, universitet tuzilish strukturasi, universitetda mavjud bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura

mutaxassisliklar, doktorantura ixtisosliklari mактабида оlib borilayotgan ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari va dasturlari va universitetda mutaxassislar tayyorlash bo'yicha olib borilayotgan laboratoriya mashg'ulotlari, jihozlanishi va ta'minlanishi bo'yicha yetarli darajada ma'lumotlarga ega bo'lishdi hamda ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash, professor-o'qituvchilar va talabalarni o'zaro almashinuvini yo'lga qo'yish, hamkorlikda yozgi maktablar tashkil etish, qo'shma ilmiy maqolalar va loyihalarni amalga oshirish kabi masalalar muhokama qilindi.




"Yozgi maktab" dasturi yakunida professor -o'qituvchi va talabalar Kasbiy dengizi sohilida joylashgan Lankoran viloyatiga ham sayohat qilishdi.





Tashrifning so'ngi kunida Lankaran shahridagi zamонави ишлаб чиқариш корxonalariga ташріф уюсhtiрилди. Ozarbayjon Respublikasining kimyoviy texnologiya sohasida yetakchi bo'lган “Lider” fabrikasi, Lankaran shahrining “Lankaran choy fabrikasi” hamda “As Granat” ишлаб чиқариш korxonasiga tashrіf уюсhtiрилди. Tashrif davomida korxnolarning ишлаб чиқариш liniyalari, jarayonlari va uskunalar bilan yaqindan tanishtirilib o'tildi.



TKTI Korxonalar va ta'lif muassasalari  
bilan ishslash bo'yicha prorektor

**Shernayev A.N.**